



## **SAYLOV KUZATISH MISSIYASI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDDATIDAN OLDIN PREZIDENT SAYLOVI, 2016 YIL 4 DEKABR**

---

### **DASTLABKI NATIJA VA XULOSALAR BAYONOTI**

---

#### **DASTLABKI XULOSALAR**

---

4-dekabrda prezident saylovlari uzoq vaqtdan beri ishlab kelayotgan tizimning kamchiliklarini har tamonlama islohot qilish kerak ekanligini namoyon etdi. Qonun asoslari demokratik saylov o'tkazilishiga imkon bermaydi. Saylov rahbariyati saylovlarda oshkoralikni oshirishda tegishli choralar ko'rishdi va saylovga samarali tayyorlanishdi. Davlat vakillarining ustunligi va inson huquqlarining cheklanganligi siyosiy pluralizmning zaiflanishiga va saylov tashviqotining raqobatdoshsizligiga olib keldi. Ommaviy axborot vositalarida saylov jarayonining uzatilishi qattiq cheklangan va nazoratga olingan muhitdadir, axborotlarning davlat tomonidan belgilab bergan chegaradan chiqmasligi, saylovchilarni muqobil fikriga ega bo'lmashiga olib keldi. Saylov kuni ko'p qoidabuzarliklar kuzatildi, jumladan, byulleten qutisini to'ldirish, birovning o'rniga ovoz berish kabilardir, garchi bunday holatlarga qarshi juda ko'p tashviqotlar olib borildi. Saylov kommissiyasi natijalar bayonomasini to'ldirishda qiyinchiliklarga duch keldi.

Prezident saylovi Markaziy saylov kommissiyasi (MSK) qarorlari va qonunlar orqali tartibga solinadi. YXHT DIIHBning asosan texnik xususiyatga ega bo'lgan tavsiyalari qonunga kiritilgan so'nggi o'zgarishlarida o'z aksini topgan. Uzoq vaqtdan beri berilgan tavsiyalar esa shu paytgacha ko'rib chiqilmagan. Umuman olganda, qonun doirasida asl demokratik saylovlarni o'tkazish hanuzgacha kamchiliklarga ega, chunki jamoat birlashmalari va kengashlarida so'z erkinligiga cheklov qo'yilgan va qat'iy amal qilinishi nazoratga olingan.

Saylov kommissiyalari MSK tomonidan boshqarilib, saylov oldi jarayoni mohirona tashkillashtirildi va qonunda belgilangan muddatlarga amal qildindi. MSK majlislarni ochiq tarzda o'tkazib, qarorlarini tezkorlik bilan nashr etdi. Bu o'z navbatida, saylov jarayoni oshkoraligiga hissa qo'shdi. Biroq saylov kuniga aloqador muhim jarayon va ovoz natijalarini hisoblash tartibga solinmasdan qolgan. MSK saylovchilarni saylovlar haqida xabardor qilishda hamda boshqalar o'rniga ovoz berish mumkin emasligi to'grisida samarali informasion kampaniyasini davlat va nodavlat televideniylarida olib bordi.

Prezident vazifasini bajarayotgan bosh vazirni ham hisobga olganda to'rtta partiya o'z nomzodlari bilan qatnashdilar. Qonun mustaqil nomzodlarga o'z nomzodini qo'yishga ruxsat bermaydi. Nomzodlikka bo'lgan ba'zi talablar xalqaro qoidalarga ziddir. Bular turar joyi, til bilish darajasi va jinoiy javobgarlikka tortilganini o'z ichiga oladi.

Ijobiy o'zgarishlardan biri, nomzodni ro'yxatga olish uchun kerak bo'ladigan jami saylovchilarning yig'iladigan umumiy imzolar soni 5% dan 1% ga kamaytirildi. Bu bilan nomzodlik uchun qo'yiladigan cheklovlar yengillashtirildi.

Saylovda to'rtta nomzod ishtirok etishlariga qaramasdan, ular o'z dasturlari va davlat siyosati bo'yicha bahslashishidan o'zlarini tiydilar.

Saylovoldi tashviqot olib borishda raqobat kuzatilmadi va ovoz beruvchilarga muqobil siyosat taqdim etilmadi.

Ushbu jarayon kuchli tartibga solingan muhitda va to'rttala nomzod ham bir-biriga o'xshash tashviqot materiallaridan foydalanib, o'xshash tadbirlar o'tkazdilar.

O'zbekiston Respublikasi Liberal Demokratik Partiyasi nomzodining tashviqotlari partiya va davlat o'rtasidagi tashviqotlar farqini chalkashtirib yubordi. Bu o'z navbatida, YHXTning 1990 yildagi Kopengagen hujjatining 5.4 bandiga qarshidir.

Markazlashgan ovoz beruvchilarni ro'yxatga olish tizimining yo'qligi va ovoz beruvchilarni saylov kuni ro'yxatga olishga ruxsat berilishi, ularning bir marotaba saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi va bir marotaba ovoz berishini ta'minlashga qiyinchilik tug'diradi. Takroriy ro'yxatga olish va ovoz berishni oldini olish choralaridagi kamchiliklar saylov jarayonini haqqoniyligiga putur yetkazadi. Taxminan 20.5 million ovoz beruvchilar ro'yxatga olingan, shulardan 12000 nafar ovoz beruvchilar chet elda ro'yxatga olingan.

Qonun tashviqot faoliyatlarini qat'iy o'z ichiga olib, Ommaviy axborot vositalarida har bir nomzodga mamlakat va viloyat miqiyosida me'yorida ortiq bepul efir vaqti va matbuot maydoni berildi, natijada matbuot materiallari belgilangan hajmiga nisbatan oshib ketgan. Nomzodlarning faoliyati haqidagi hisobot bir xil va takroriy bo'lib, asosan ijobiy mazmunda yetkazildi. Jonli efir muloqoti va avvaldan yozib olingan tashviqot murojaatlari bir-biriga o'xshashdir. Milliy va xalqaro tahliliy va tanqidiy vebsaytlarga kirish imkoniyati cheklanishi davom etdi. Bu o'z navbatida, jamoatning siyosiy fikr almashishiga to'sqinlik qildi, bu esa saylovchilarni anglab tanlashiga to'siq bo'ladi.

Saylov yilida partiyalar saylovoldi tashviqot xarajatlari uchun teng miqdorda davlat fondidan mablag' ajratilgan. Tashviqot xarajatlarining oshkorligi chegaralangan, bunga sabab ommaga xarajatlarni oshkora qilish va nomzodlarning tashviqot oldi xarajatlar bayonotini topshirish talablari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Partiya yoki nomzodlar tashviqotlari uchun shaxsiy mablag' bilan ta'minlash taqiqlangan. Bu o'z navbatida fuqarolarni o'zi tanlagan nomzodga moliyaviy yordam berishiga cheklov qo'yadi.

Saylovga doir nizolarni hal qilish jarayoni bir necha qonun va MSK qarorlari bilan tartibga solinadi, bu esa o'z navbatida yaqollikni yo'qotadi. Natijalarni qayta hisoblash va ularni bekor qilish qonunda ko'rsatilmaganligi sababli, saylov jarayonida samarali chora ko'rishni cheklaydi. YHXT/DIHHB SKMga saylov kommissiyasi yoki sudga rasmiy murojaat qilinganligi haqida xabar berilmadi.

Milliy kamchilikni tashkil qiluvchilar Konstitutsiyaga binoan to'liq siyosiy huquqlaridan foydalanishadi. Tashviqot materiallari uchta milliy kamchilikni tashkil qiluvchi tillarda mavjud bo'lgan. MSK saylovga tegishli ko'pgina materiallarni chop etgan, bunga O'zbek, Rus va Qoraqalpoq tillardagi byuletenlar kiradi. Mamlakat miqiyosidagi davlat gazetalarida nomzodlarga tegishli tashviqot axborotlari uchun Rus, Tojik va Qozoq tillarida bepul bosma maydonlari ajratilgan. Til va shaxsiyatga doir muammolar tashviqotda aks ettirilmagan.

Konstitutsiyada huquqlarning tengligi kafolatlanganiga qaramasdan, ayollar saylov va ijroiya lavozimlarda to'liq namoyon qilinmagan. Saylov okruglarida ayollar soni 36% ni, saylov uchastkalarida esa 47% ni tashkil etadi. MSKning 16 nafar a'zosidan 2 nafari ayollardir.

Partiyasiz fuqarolarni kuzatuvchi bo'lib ishtirok etishi qonunda yozilmaganligi YHXT 1990-yil Kopengagen hujjatining 8-bandiga ziddir. Davlat organlari 548 xalqaro va 37000 dan ko'proq partiya kuzatuvchilarini akkreditatsiyadan o'tkazdi.

YHXT/DIHHB kuzatuvchilari tomonidan saylov kuniga salbiy baho berildi. Saylov uchastkalarining 12 foizida ovoz berish jarayonlari salbiy baholandi, davlat qonunchiligi va YHXT majburiyatlariga qarshi byulleten qutisini to'ldirish, hamda bironing o'rniga ovoz berish kabi jiddiy qoidabuzarliklar kuzatildi.

Kuzatuvchilar saylovda kuzatilgan 77 hodisadan 46 tasiga salbiy baho berishdi. Saylov uchastkalarining yarmidan ko'pi kelishilgan tartiblariga amal qilishmadi. Natijalarni sanash vaqtida tez-tez o'zgartirishlar kiritilganligi sabab, natijalar bayonnomasini to'ldirish va solishtirishda USKlar jiddiy muammoga duch keldilar.

---

## DASTLABKI XULOSA

---

### Siyosiy vaziyat

9 sentyabr kuni, Islom Karimov, O'zbekistonning birinchi prezidenti lavozimida bo'la turib, olamdan ko'z yumganidan bir haftadan so'ng, MSK 4 dekabrni muddatdan oldin prezident saylovi kuni deb e'lon qildi. 8 sentyabr kuni Oliy Majlis (parlament) ikki palataning qo'shma yig'ilishida Senatning raisi Konstitutsiyada nazarda tutilgan vaqtincha prezident vakolatlarini bajarishdan o'z nomzodini rad etganidan so'ng, Bosh Vazir Shavkat Mirziyoyev prezident vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

Ushbu saylov bir davlat rahbari boshchiligida o'tgan mustaqillikning 25 yilidan so'ng muhim bir bosqich deb hisoblandi.<sup>1</sup> Davlat siyosiy tizimining asosi Prezident idorasi boshqaruvi va qarorlari vakolatlariga bog'liq, Prezident qonun chiqaruvchi vakolatlarga ham ega, bu o'z navbatida hokimiyatning bo'linish tamoiliga samarali ta'sir qiladi.<sup>2</sup> Ro'yxatdan o'tgan to'rtta partiya a'zolari, Parlamentga to'g'ridan-to'g'ri saylanadi. Ushbu partiyalar asosan marhum Prezidentning siyosatini qo'llab kelib, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy saylovchilar tabaqalari manfaatlariga yo'naltirilishiga da'vo qiladi.<sup>3</sup> 2003 yildan beri biron yangi siyosiy partiya ro'yxatga olinmagan, YHXTning 1990 yildagi Kopengagen hujjatlarining 7.6 bandiga zid kelishi mumkin.<sup>4</sup> Siyosiy oppozisiya, mustaqil jurnalistlar va inson huquqlari himoyachilari so'z erkinliklari cheklangan muhitda ishlab kelib, jinoiy javobgarlikka tortilish ehtimoli bor.<sup>5</sup>

Ushbu saylov YHXT/DIIHB kuzatayotgan yettinchi saylovi bo'lib, ovoz berish kunidagi jarayonlarni uzluksiz kuzatish bo'yicha birinchi to'liq missiyasidir.<sup>6</sup>

---

<sup>1</sup> Prezident Karimov birinchi bor 1991 yilda prezident etib saylandi va Konstitutsiya 1992 yilda kuchga kirdi. 1995 yilda o'tkazilgan referendumda uning birinchi muddati 2000 yilgacha uzaytirildi, shu yili u ikkinchi bor yutib chiqdi, so'ng yana bir referendumda prezidentlik muddati besh yildan yetti yilgacha uzaytirildi – bu harakat 2011 yilda parlament tomonidan orqaga qaytarildi. Prezident Karimov 2007 yilda qayta saylandi (qayta ko'rib chiqilgan Konstitutsiya qoidasi asosida) 2015 yilda yana qayta saylandi.

<sup>2</sup> Prezident ijro etilishi majburiy farmonlar chiqarish va qonun loyihalarini tashabbus qilishi va loyiha yoki ulardagi qoidalarni taqiqlash huquqiga ega. Prezident bosh vazir (parlamentda eng ko'p o'ringa ega siyosiy partiya taklifi asosida) va Senat va Markaziy bank boshqaruvi raislarining, shuningdek mamlakatning uch yuqori (Konstitutsiyaviy, Oliy va Yuqori xo'jalik) sudining raislari va sudyalari nomzodlarini ko'rsatadi; Vazirlar Mahqamasini tasdiqlaydi; (Oliy Majlis ma'qullashi bilan) bosh prokuror, Milliy xavfsizlik xizmati, hisob palatasi raisi, boshqa sudlar sudyalarini, shuningdek (nomzodlarini bosh vazir ko'rsatgan) viloyat hokimlarini tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi.

<sup>3</sup> 150 joydan 15 tasi O'zbekiston Ekologiya Harakati delegatlariga berilgan.

<sup>4</sup> 1990 yilda Kopengagenda qabul qilingan YHXT hujjatining 7.6 bandida, YHXT ishtirokchi davlatlar “fuqarolarning mustaqil ravishda yoki siyosiy partiyalar yoki tashkilotlarning vakili sifatida, hech qanday kamsitishsiz, siyosiy va davlat lavozimlariga da'vogarlik huquqlarini hurmat qilish”lari kerakligi bayyon qilingan. BMTning 1996 yildagi Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi (BMTIHQ) tomonidan fuqarolik va siyosiy paktning 27 moddasida berilgan 25-sonli umumiy izohni qarang.

<sup>5</sup> Inson huquqlari himoyalash vaziyati bo'yicha Maxsus Ma'ruzachisi “ko'plab inson huquqlari faollari, mustaqil jurnalistlar va dissidentlar siyosiy ayblovlar bilan qamoqda olinganligidan tashvishda” ekanligini bildirdi. O'zining so'nggi nutqida, iyul 2015 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi (BMTIHK) O'zbekistonning to'rtinchi hisobot ko'rigidan o'tkazishda “izchil hisobotlarda inson huquqlari himoyachilari hukumat tanqidchilari, mustaqil jurnalist va boshqa faollardan ularning ish uchun o'ch olish maqsadida soxta ayblovlar va jinoiy ta'qib, kuzatuv, o'zboshimchalik bilan hibsga olish va hibsdan saqlash, xavfsizlik kuchlari tomonidan qiynoqlar va noinsoniy muomala qinganligidan” tashvish ekanligini bildirdi.

<sup>6</sup> [YHXT/DIIHBning O'zbekiston haqidagi ilgari hisobotiga qarang.](#)

## Saylov Tizimi va Huquq-Me'oriy Asos

Prezident umumxalq, to'g'ridan-tog'ri ovoz berish yo'li bilan besh yillik muddatga saylanadi. Agar birorta nomzod ham 50 foiz ovoz olmasa, bir oy mobaynida, ikki yetakchi nomzod orasida ikkinchi davra o'tkaziladi. Birinchi davra saylovi haqiqiy deb hisoblanishi uchun, saylovchilarning 33 foizi saylovda qatnashgan bo'lishi shart, ammo ehtimoliy ikkinchi davra uchun bunday talab qo'yilmagan. Konstitutsiyaga binoan Prezidentlik ikki ketma-ket muddat bilan cheklangan.

Prezident saylovi asosan Konstitutsiya, Prezident saylovi to'g'risidagi qonun (PSQ), Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi qonun (MSK to'g'risidagi qonun) va Fuqarolarning saylov huquqlarining kafolati to'g'risidagi qonun (Saylov qonuni) va bir qancha boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.<sup>7</sup> Saylov jarayoni to'g'risidagi me'yorlar bir nechta qonunlar va MSK qarorlarida o'z aksini topgan, bu holat qonun shaffofligiga ta'sir qilmoqda.<sup>8</sup> Undan tashqari, bir nechta muhim masalalar asosiy qonunlar bilan emas, balki MSK qarorlari tomonidan tartibga solindi va qonun aniqligi ta'minlanmadi.<sup>9</sup> 2015 yil dekabr oyida, oxirgi prezident saylovidan so'ng PSQ, MSK to'g'risidagi va boshqa saylovga aloqador qonunlarga ba'zi o'zgartirishlar kiritildi.<sup>10</sup> Xususan, nomzod uchun talab qilinadigan qo'llab-quvvatlovchi imzolar soni mamlakatdagi saylovchilar sonining 5 foizidan 1 foizigacha kamaytirildi va YHXT/DIIHB avvalgi tavsiyalariga muvofiq ravishda MSKga qarorlarni o'z veb-saytida e'lon qilish majburiyati yuklandi. Qolaversa, saylov tashviqoti va muddatidan oldin ovoz berishga tegishli qonuniy-huquqiy me'yorlarga aniqlik kiritildi.<sup>11</sup> Ammo YHXT/DIIHB ning avvalgi bergan inson erkinliklari huquqlari cheklovlariga qarshi tavsiyalari inobatga olinmay, muhim qonuniy reformalar qilish kerakligi e'tiborsiz qoldirilgan.

Qonun asoslari me'yoridan ortiq ta'qiqlovlar va o'zboshimchalik bilan ijro etish orqali fuqarolarning asosiy erkinliklarini cheklab qo'ygan.<sup>12</sup> Jamoat yig'ilishlarini o'tkazish uchun bir oy avval ruxsat olish talabi mavjudligi, shuningdek qoidalarni buzgan ishtirokchilarga nisbatan choralar ko'rish, jumladan, jarimaga tortish va uch yil muddatga qamoq jazosining berilish ehtimoli buning yaqqol isbotidir.<sup>13</sup> Jamiyat birlashmalari chekloviga siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilot (NNT)larni ro'yxatga olishga doir og'ir talablar, ro'yxatga olishni rad etish va ro'yxatdan chiqarib tashlash borasidagi vakolatlar, ularning faoliyati yo'lidagi huquqiy va ma'muriy to'siqlar kabilar kiradi. 2016 yil NNTlarni chet eldan mablag' bilan ta'minlashga doir shunday mushkul qoidalar yanada murakkablashtirildi.<sup>14</sup> So'z erkinligi ko'plab jinoiy va ma'muriy huquqbuzarlik qoidalari bilan cheklangan. Umuman, saylov huquqiy me'yorlari asl demokratik saylovlar o'tkazish talabiga javob bermaydi va xalqaro majburiyatlariga mos emas.

<sup>7</sup> Tadbqiq etiladigan qonunchilik hujjatlari, shuningdek Siyosiy partiyalar to'g'risida qonuni, Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish va Fuqarolar murojaatlari to'g'risidagi qonunlarni hamda Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodekslarning tegishli qoidalarni o'z ichiga oladi.

<sup>8</sup> Masalan, Fuqarolar saylov huquqlari va PSQ larida saylash huquqlari takrorlanib kelgan; muddatidan oldin ovoz berish Fuqarolar saylov huquqlari, PSQ, MSK 739 va 750 qarorlari; tashviqot tartibi Fuqarolar saylov huquqlari, PSQ va MSK 743 qarorida ko'rsatilgan.

<sup>9</sup> Masalan, tashviqotni moliyalashtirish MSKning 733 Qarori asosida tartibga solinadi, PSQ umumiy saylovni o'z ichiga olgan.

<sup>10</sup> Siyosiy partiyalar to'g'risida va Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi qonunlarga kiritilgan o'zgartirishlar prezident sayloviga tadbqiq etilmaydi.

<sup>11</sup> Qolaversa, 2014 yilda MSK qarori bilan joriy etilgan suddan avvalgi hibsdan saqlash muassasalarida saylov uchastkalari PSQga kiritilgan.

<sup>12</sup> O'zbekistonning To'rtinchi davriy hisoboti bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson Huquqlari Qo'mitasi (IHQ)ning yakuniy xulosalari, 2015 yil, avgust (United Nations Human Rights Committee (HRC) Concluding Observations on the fourth Periodic Report of Uzbekistan, August 2015).

<sup>13</sup> Jamoat yig'ilishlari to'g'risida qonun mavjud emas. Vazirlar Mahkamasining 205 qarori bilan tartibga solinadi.

<sup>14</sup> Qonunda Tashqi ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va NNTlarni chet el moliyalashtirilishi bo'yicha bank komissiyasining tasdig'i shuningdek, NNT vakillarining chet el safarlari to'g'risida axborot berilishi talab qilinani. Ushbu talablar Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) to'g'risidagi qonunga 2016 yil 25 aprelda kiritilgan o'zgartirishlar va Adliya vazirligining 2016 yil 15 iyundagi 2802-son buyrug'i bilan joriy etilgan

## Saylov Boshqaruv organlari

Prezident saylovi MSK, 14 ta okrug saylov komissiyasi (OSK) va 9383 ta uchastka saylov komissiyasi (USK) tomonidan boshqarildi.<sup>15</sup> MSK doimiy mavjud organdir, OSK va USK esa, har bir saylov mobaynida tashkil etiladigan tuzilmalardir. Saylov komissiyalari tegishli ravishda ta'minlandi va saylovning umumiy texnik tayyorgarligi mohirona tashkil etildi, belgilab qo'yilgan qonuniy muddatlarda amal qilindi.

MSK 16ta a'zodan ikkitasi a'yollar bo'lib, MSK a'zolari cheklanmagan muddatga viloyat kengashlari taklifi asosida parlament tomonidan ta'yinlanadi. MSK YHXT/DIIHB SKM davrida to'rtta yig'ilish qilib, yig'ilish xalqaro kuzatuvchilar, partiya kuzatuvchilari va axborot agentliklari uchun ochiq edi. Saylov boshqaruvida oshkoralikni yanada ta'minlash maqsadida, MSK 3 marotaba barcha 14 ta OSK bilan birgalikda jonli video konferensiyalarni tashkillashtirdi.

Muddatdan oldin prezident saylovi e'lon qilingandan so'ng, MSK saylov jarayoniga taalluqli bo'lgan 60 ta qaror qabul qilib, ularni veb-saytida e'lon qildi. Yo'riqnomalarning texnik xarakterga ega bo'lgan qismlari batafsil yoritildi, ammo boshqa saylov kuniga oid muhim tadbirlar va natijalarni hisoblash tizimi tartibga solinmadi.<sup>16</sup>

MSK nogiron saylovchilarning mustaqil ishtirokini ta'minlash maqsadida yangi qarorning qabul qilinishi ijobiy ko'rsatkichlaridan biri bo'ldi.<sup>17</sup> Jumladan, saylovda birinchi bor saylov byulletenlarining bir qismi Brayl alifbosida chop etildi, garchi bunday byulletenlar boshqalaridan farqli bo'lishi, yashirin ovoz berish tamoyiliga ta'sir qiladi. Shunga o'xshagan izohni muddatidan oldin ovoz berish byulletenlari haqida ham bergan edik.<sup>18</sup>

MSK OSKlarni shahar va viloyat Kengashlari deputatlari tavsiya qilgan va tanlagan nomzodlar asosida tashkil qiladi. OSK USK a'zolarini mahallalardan ko'rsatilgan nomzodlar asosida kengashlar tavsiyalariga muvofiq tuzadi.<sup>19</sup> Ayollar soni OSKning 36.8 foizini va USKning 47 foizini tashkil qiladi.<sup>20</sup> Qonunga ko'ra, siyosiy partiyalar a'zolari, nomzodlar va ularning ishonchli vakillari saylov komissiyasi tarkibiga kira olmaydi; quyi darajadagi komissiya a'zosi bo'lishi uchun yagona mezon "obro" hisoblanadi. Ko'p hollarda USK a'zolari mahalla qo'mitalarida yoki saylov uchastkalari atrofida joylashgan muassasalarda ham rahbarlik qiladilar. Ba'zi hollarda mazkur muassasalar

<sup>15</sup> Jumladan mamlakatdan tashqarida 36 davlatdagi diplomatik vakolarxonalarida tashkil etilgan 44, harbiy majmularida tashkil etilgan 226 va suddan avval hibsdan saqlash muassasalarida tashkil etilgan 11 saylov uchastkasi. OSK soni 12 viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida tashkil etilgan saylov okruglar soniga mos. Uchta eksklavlar mavjud bo'lib ikkitasi Qirg'iston hududida Farg'ona OSK siga qarashli va bitta Tojikiston hududida bo'lib Namangan OSK siga qarashli.

<sup>16</sup> Masalan, OSK tomonidan USK Bayonnomalari tekshirish, bayonnomalar bekor qilish yoki noto'gri deb baholashning mezonlari, OSK sanash va natijalarni hisoblash proseduralari.

<sup>17</sup> MSKning 8 noyabrdagi 773-sonli nizomiga ko'ra, barcha SU aravachalardan foydalanadigan saylovchilarning binoga kirishini osonlashtirish maqsadida estakadalar bilan jihozlanishi lozim; shuningdek bunday saylovchilarning ehtiyojlarida moslashtirilgan alohida ovoz berish budkalari ham o'rnatiladi. MSK ma'lumotiga ko'ra, mamlakatda 39.000dan ortiq ko'zi ojiz yoki ko'rishi zaif saylovchilar bor.

<sup>18</sup> Saylov kuni saylov uchastkalariga kela olmagan ovoz beruvchilar 24 noyabrdan 2 dekabr oralig'ida muddatidan oldin ovoz bera oldilar. Ular kela olmaslik sababini hech qanday isbotsiz yozma ravishda ko'rsatib berishlari kerak edi.

<sup>19</sup> Mahallas are traditional Uzbek community structures that regulate the everyday life of a settlement and serve to link the state and the community. Among other things, they are a primary source of social services for community residents. Their role was formalized in the 1993 Law on the Institutions of Self-Government of the Citizens (Mahalla Law). Violations of mahalla committee decisions are legally punishable. According to some scholars, mahallas have both formal and informal governance roles. Ba'zi bir manbalarga qaraganda, mahallalar rasmiy va no-rasmiy davlat vakolatlari bor.

<sup>20</sup> Hech bir OSKga ayol raislik qilmagan, garcha a'zolarining yarimi ayollar bo'lsaham.

rahbarlari bir vaqtning o'zida USKni ham boshqaradilar va ushbu kommissiyaning a'zolari ularga bo'ysunadilar.<sup>21</sup> Ushbu holat USK a'zolarining mustaqil qaror qabul qilishlariga to'sqinlik qiladi.

1 noyabr kuni MSK barcha USK a'zolari uchun o'quv dasturlarini boshlab yubordi. Ovoz berish kuni jarayonlariga ba'g'ishlangan o'qitishning ikkinchi davrasi 20-30 noyabr kunlari mobaynida bo'lib o'tdi. MSK, media va bir nechta davlat jamoat birlashmalari bilan birga saylov jarayonining turli jihatlarini, jumladan, saylovchilarning xabardorligini oshirish va boshqalar o'rniga ovoz berishga qarshi jadal kampaniya boshlab yubordi. Ba'zi teleroliklar imo-ishora tilida bo'ldi.

## Saylovchilarni Ro'yxatga Olish

18 yoshga to'lgan fuqarolarning barchasi saylovda qatnashish huquqiga ega. Aqliy layoqatsiz deb topilgan yoki sodir etgan jinoyatlarining o'g'ir-yengilligidan qat'iy nazar, qamoq jazosini o'tayotganlar ovoz berishga yo'l qo'yilmaydi, vaholanki suddan avval hibsga olish muassasalaridagi fuqarolar ovoz berishi mumkin. Ruhiy nozog'lom va jinoiy javobgarlikka tortilgan fuqarolarning hammasiga bir xil saylov huquqlarini cheklanaverishi YHXT va boshqa halqaro majburiyatlariga zid.<sup>22</sup>

Saylovchilarni ro'yxatga olish sust bo'lib, mahalliy boshqariladi. Markazlashtirilgan saylovchilarni ro'yxatga kiritish tizimi yo'q<sup>23</sup>. Saylovchilar doimiy yoki vaqtinchalik turar joyiga qarab ro'yxatga olinadi. Qonunga ko'ra, saylovchi faqat bitta saylov ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Qonunga muvofiq, USKlar mahalliy boshqaruv organlari (hokimiyatlar) taqdim etgan ma'lumotlarga asoslanib saylovchilar ro'yxatini tuzadilar. Ammo, YHXT/DIIHBning SKMsi kuzatuvlari davomida OSK, USK, mahalla va hokimiyatlar amalda dastlabki ro'yxatlar tuzilishining xilma-xil usullaridan foydalanganligiga guvoh bo'ldilar.

Srlari oddiy saylov uchaskalarida chop etilib, jamoatchilik tomonidan o'rganish uchun 19 noyabr kuniga borib, maxsus saylov uchaskalarida esa 2 dekabr kuni osib qo'yilgan.<sup>24</sup> Saylovchilar o'zlariga oid ma'lumotlarni tekshirib tasdiqlashi va o'z USKlaridan ularga o'zgartirish kiritishni, jumladan saylov kuni ham talab qilishlari mumkin.<sup>25</sup> Bundan tashqari, USK uyma-uy tekshirishlarni tashkillashtirib, mamlakat bo'ylab 20, 428,891 nafar, mamlakat tashqarisida esa, 12,000 nafar saylovchilar mavjudligini e'lon qildilar.<sup>26</sup>

YHXT/DIIHB ning ilgari tavsiyalariga qaramasdan, qonun saylov kuni saylovchilarni ro'yxatga olishga ruxsat beradi.<sup>27</sup> Bu esa markazlashtirilgan saylov ro'yxatining tuzilmaganligi, bir xil SR

<sup>21</sup> Bunday hollar YHXT/DIIHB SKM tomonidan Farg'ona, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, and Urganchda kuzatildi.

<sup>22</sup> 2006 yilgil Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya 29 bandida" nogironlarning siyosiy huquqlari va boshqalar bilan teng ravishda ularni bahramand bo'lish imkoniyati kafolatlash". Kopengagen Hujjatining 7.3 bandida YeXHTga a'zo davlatlar " fuqarolarning universal va tenglik asosida ovoz berish kafolatlari " lozimlogi ko'rsatilgan, YeXHT ning 1990 yilgi Kopengagen Hujjatining 24-bandida quyidagicha bayon etiladi: " demokratik jamiyatda huquqlar va erkinliklarning chegaralanishi bu boradagi qonun vazifalaridan biriga mos bo'lishi hamda... Proporsional bo'lishi lozim". "Foqarolok siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro bitim"ning BMTIHQ taqdim etgan25-Umumiy izohning 14-bandiga qarang. Yevropa Komissiyasining Qonunlar orqali demokratizasiya kengashi (Venesiya Komissiyasi)ning " Ijobiy amaliyot kodeksi"ning 2002 yildagi I.1.1.1.1 d bandiga qarang.

<sup>23</sup> YHXT/DIIHB SKM Markazlashtirilgan saylovchilarni electron ro'yxatga kiritish tizimi ustidan ish olib borilayotganligi va 2018 yil ishga tushirilishi haqida habordor qilishishdi.

<sup>24</sup> Harbiy bazalar, sog'liqni saqlash muassasalari, vaqtinchalik hibsdan saqlash muassasalari va diplomatik missiyalarida SR ushbu muassasalar rahbarlari taqdim etgan ro'yxatlar asosida tuziladi. Harbiy qismlardan tashqarida yashaydigan yordamchi xodimlar va ularning oila a'zolari o'zlarining tegishli USKda tuziladigan SRga kiritiladi.

<sup>25</sup> USK qarorlari va ularga qarshi appelatsiya taliqli tuman sudiga 24 soat ichida topshirilishi kerak, agar saylovga bir kun qolganda yoki savloy kuni sudlar murajaatni zudlik bilan kurib chiqadilar.

<sup>26</sup> YHXT/DIIHB SKMni Davlat Statistika Qo'mitasi, 2000 yildan beri kamida 1 million odam immigratsiya qilib ko'chib ketganligini malum qildi.

<sup>27</sup> Ovoz berish kunida ro'yxatdan o'tishga yo'l qo'yadi, bunda saylovchilar asosiy SRga ilovaga shaxsni tasdiqlovchi hujjat va yashash joylarining isboti asosida kiritiladilar. MSKning 739 qaroriga binoan, saylov kuni saylovchini ro'yxatga olgan USK, saylovchining doimiy yasha joyidagi USKni habardor qilishi majburiydir, bu bir maratobadan

tuzilishining yo'qligi tufayli bir marotabadan ko'p ovoz berish va bir marotabadan ko'p ro'yxatga kiritilish holatlari yuzaga keladi.

## Nomzodlarni Ro'yxatga Olish

Kamida 35 yoshga kirgan, ovoz berish kuniga qadar mamlakatda kamida 10 yil davomida doimiy yashagan va o'zbek tilini mukammal biladigan O'zbekiston fuqarosi prezidentlikka nomzod bo'lishi mumkin. Qastdan sodir etilgan jinoyatlari uchun ilgari sudlangan fuqarolar, fuqaroga jinoiy ish qo'zg'atilib, qonun ta'qib etilayotgan fuqarolar, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari o'zini nomzodligini qo'yish huquqiga ega emas. O'z-o'zini nomzodini mustaqil ravishda ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.<sup>28</sup> Yashash muddati, tilni bilish darajasi, mezonlar va xar-xil jinoyatlar uchun bir xil mezon qo'llab ularni cheklash, xalqaro majburiyat va standartlariga to'g'ri kelmaydi.<sup>29</sup> Buning ustiga, fuqaroni sud oldida aybdor deb topilmaganigacha saylov ro'yxatiga kiritilmasligi, aybsizlik tamoyiliga qarshidir.<sup>30</sup>

MSK to'rt siyosiy partiya vakili bo'lmish to'rt prezidentlikka nomzodni ro'yxatga oldi.<sup>31</sup> Nomzodlar qo'llab-quvvatlovchi imzolar yig'ishi kerak edi. YHXT/DIHHBning ilgari tavlitasiga qaramasdan, saylovchilar faqat bir nomzodni qo'llab-quvvatlashi mumkin, bu siyosiy plyuralizmga ta'sir etadi va xalqaro tajribaga to'g'ri kelmaydi.<sup>32</sup>

## Saylov Oldi Tashviqot

Rasmiy saylov oldi tashviqot 30 oktyabr kuni boshlandi va 2 dekabr kuni tugadi. Tashviqot qattiq nozorat ostida o'tib, so'z erkinligi, jamoa birlashmasi va yig'ilishlariga cheklov qo'yilishi, demokratik saylovlarni olib borishda jamoatchilik ishtirokini ancha chekladi.<sup>33</sup> Tashviqot o'rtacha darajada diqqatni tortadi va to'rt siyosiy partiya monand tashviqot materiallari va tabdirlari bilan xarakterlanadi.

---

ko'p ovoz olishni oldini olish uchun muhim. I.1.2 iv Yahshi Tajribalar to'plami aytilgan,"Saylov kuni saylovchini saylob uchaskalarini ruyhatga olinmasin" deb.

<sup>28</sup> Kopengagen Hujjatining 7.3 va 7.5 bandiga qarang. Unda YeXHTga a'zo davlatlar " fuqarolarning universal va tenglik asosida ovoz berish kafolatlari va yo tashkilotlarning a'zosi sifatida , siyosiy yoki jamoatchilik lavozimlarini egallash uchun diskriminasiya qilinmagan holda saylovda qatnashish huquqini ta'minlashlari lozim". Fuqarolik va siyosiy bo'yicha xalqaro bitim" ning 25 modda, " b"bandiga qarang ( BMTIHQ) (b) " Har bir fuqaroning hech qanday cheklovlarsiz saylash va saylanish huquqiga ega". 2002 yil Hando'stlik davlatlar Konvensiyasi 3.4 moddasi "hamma fuqaro qonuniy o'z nomzodini saylovga qo'yishi mumkin ".

<sup>29</sup> BMTIHQ taqdim etgan 25-Umumiy izohning 15-abzasiga qarang. Unda xususan shunday deyiladi: "saylovda qatnashish huquqining har qanday cheklanishi ... xolis va mantiqiy bo'lgan me'zonlarga ko'ra asosan beriluvchi bo'lishi lozim. Boshqa barcha jihatlariga ko'ra saylovda ishtirok etishi mumkin bo'lgan insonlar asosga ega bo'lgan yoki diskriminasiya sababidan , [ ...] yashash o'rni [ ...] ga ko'ra saylovda ishtirok etishdan chetlatilmasliklari lozim ". Shuningdek , Venetsiya Kmissiyasi " Ijoiy amaliyot kodeksi"ning 1.1- abzasning ( c) punktiga qarang. Unda " muayan joyda yashash muddati bo'yicha talab, mamlakat fuqarolariga faqat mahalliy yoki hududiy saylovlarda qatnashishlari bo'yicha qo'yilishi mumkin". YeXHT ning 1990 yilgi Kopengagen Hujjatining 24-paragrafida quigagicha bayon etiladi: " demokratik jamiyatda huquqlar va erkinliklarning chegaralanishi bu boradagi qonun vazifalaridan biriga mos bo'lishi hamda .... Proporsional bo'lishi lozim."

<sup>30</sup> YHXTning 1990 yildagi Kopengagen hujjatlarining 5.19 bandida "ayibi isbotlanmagunicha , hamma qonun oldida aybsizdir deb topiladi" deyilgan.

<sup>31</sup> MSK to'rt siyosiy partiya vakili bo'lmish to'rt prezidentlikka nomzodni: Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi (O'zLiDeP), Xatamjon Ketmonov, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zXDP), Narimon Umarov, "Adolat" O'zbekiston Sotsial Demokratik Partiyasi va Sarvar Otamuratov, "Milliy Tiklanish" O'zbekiston Demokratik Partiyasi ro'yxatga oldi.

<sup>32</sup> Ushbu boradagi ijoiy amaliyot namunasi sifatida YHXT/DIHHB va Venetsiya Komissiyasi tomonidan 2010 yilda e'lon qilingan " Siyosiy Partiyalarni boshqarish bo'yicha Qo'riqnomalar" ning 77 paragrafida "pluralism va uyushish erkinligini tatbiq etish maqsadida qonunchilikda fuqaro tomonidan partiyani qo'llab imzo qo'yish imkoniyati faqat bitta partiya ro'yhatiga cheklanmasligi lozimkerak" deb ko'rsatilgan.

<sup>33</sup> BMTning 25 sonli Inson Huquqlari Qo'mitasining 12 abzasiga "so'z erkinligi , yig'ilish va birlashmalar ovoz berish huquqidan samarali foydalanish uchun zarur sharoitdir va to'laqonli qonun tomonidan himoyalaniishi shart... "deb ko'rsatilgan.

Saylov rahbariyati mamlakat uzra jolashtirilgan 642 bilbord, va har-bir nomzodga teng nomzodlar haqida ma'lumot beruvchi posterlar ajratdi.<sup>34</sup> Bunga talab bo'lmasada, bir-biriga o'xshash kichikroq tashviqot materaillarini ishlab chiqdilar.

MSK yordami bilan to'rt nomzodning ovoz beruvchilar bilan mamlakat bo'ylab uchrashuvlari tashkil etilgan.<sup>35</sup> Bu uchrashuvlarda tez-tez viloyat partiya a'zolari tomonidan taklif etilgan mahalliy rahbarlar ishtirok etdilar va birinchi marotaba har bir viloyatdagi hududlarda ko'proq ovoz beruvchilar soniga ega bo'lish uchun video konferensiyalar tashkil etildi.<sup>36</sup> YHXT/DIIHB SKM kuzatuv davomida didsiz uyushtirilgan tadbirlarni qayd qilishdi, va tadbir davomida siyosiy partiyalar faoliyatini taqdim etishdi.<sup>37</sup> Nomzodlar bir hafta qolganida tashviqot tadbirlarini olib borishni to'xtatdilar.

Garchi 2015 yilda qonunga kiritilgan o'zgartirishlar bahs-munozarani nazarda tutsa-da, nomzodlar o'rtasida ularning dasturlariga tegishli bahs-munozaralar olib borilmadi yoki bir-birini tanqid qilishdan o'zlarini tiydilar. To'rt nafar nomzod saylovda ishtirok etishlariga qaramasdan, tashviqot kampaniyasi raqobatdoshsizroq bo'ldi va ovoz beruvchilarga muqobil siyosat taqdim etmadi.

Nomzodlardan biri jamoatchilikni turli yo'llar bilan, jumladan, O'zLiDePning mahalliy bo'limlari idoralari orqali savollar yo'llashga rag'batlantirish uchun o'z rasmiy veb-saytidan foydalanmoqda; boshqa partiyalarda ham murojaat markazlari mavjud. O'zLiDeP ba'zi masalalarni davlat muassasalari tomonidan yechilganini namoyish qiluvchi Facebook sahifasi bilan ko'lamli diqqatni tortmoqda. Tashviqot - partiya va davlat tashviqotlari bilan chalkashib ketishi, YHXTning 1990 yildagi Kopengagen hujjatlarining 5.4 bandiga qarshidir.<sup>38</sup> Uning ustiga, o'tish jarayonida tinchlik va osoyishtalik kerakligini takrorlovchi tashviqotlar prezident vazifasini bajaruvchi va LDPU nomzodiga foyda berdi.

Mahalliy mahalla vakillariga o'xshab, bir qancha davlat homiyligidagi jamoat birlashmalari ya'ni Kamolat yoshlar ijtimoiy harakati va O'zbekiston Respublikasi ayollar qo'mitasi ovoz beruvchilarning faol ishtirokiga undadi.<sup>39</sup> YHXT/DIIHB SKM 31 ta tashviqot kampaniyalarini kuzatuvi jarayonida bir qancha nomzodlar ayol ovoz beruvchilarga qarata murojaat qilganliklarini va auditoriada ayollar soni yetarli darajada ishtirok etganligi kuzatildi.

## Tashviqotni Moliyalashtirish

Tashviqotni moliyalashtirish MSK qarori va PSQ tomonidan tartibga solinadi. Saylov yili davomida partiyalar tashviqot bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar uchun qo'shimcha davlat mablag'ini oladilar. Ushbu saylov uchun har bir partiya 1 milliard so'm (taxminan 294.000 yevro) miqdorida mablag' oldi va bepul tashviqot tadbirlarini o'tkazish uchun joylar va tekin axborot vaqti berildi.<sup>40</sup> Partiya yoki nomzodlar tashviqotlari uchun shaxsiy mablag' bilan ta'minlash taqiqlangan. Bu o'z navbatida fuqarolarni o'zi tanlagan nomzodga moliyaviy yordam berishiga cheklov qo'yadi.<sup>41</sup> Buning o'rniga shaxsiy mablag'lar MSKga xayriya etiladi, va MSK bu xayriyani nomzodlar o'rtasida teng taqsimlaydi.

<sup>34</sup> Har bir da'vogar mamlakat uzra tashviqot xabarlarini namoyish etish uchun 36 elektron ekrandan teng foydalanish imkoniyatiga ega. Toshkent shahar hokimiyati har bir nomzodga yana 25 tadan bilbord berishga qoro qildi.

<sup>35</sup> Ko'p kichik ko'lamdagi uchrashuvlar nomzod ishongan vakil orqali o'tkazildi: Har bir nomzod tashviqot uchun 15 nafar ishongan vakil tanlashi mumkin, ko'pincha 14 nafar yoki bir viloyatga bir vakil saylanadi.

<sup>36</sup> YHXT/ DIIHB SKM tomonidan Jizzax, Qoraqalpog'iston, Navoi va Samarqandlarda kuzatildi.

<sup>37</sup> Faqat O'zLiDeP nomzodi mashhur mehmonlar va auditoriya bilan interactive yullar orgali yaqqol tashviqotlar olib bordi, bu Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston, Farg'ona, Qarshi, Toshkent, Termiz hududlarida kuzatildi.

<sup>38</sup> Kopengagen Hujjatining 5.4 bandida "davlat bilan siyosiy partiyalar bir- biridan ajralgan bo'lishi, va bir-biri bilan qo'shilib ketishi mumkin emas".

<sup>39</sup> YHXT/DIIHB SKM tomonidan Jizzax, Namangan va Toshkentda kuzatildi.

<sup>40</sup> Rasmiy kursga ko'ra, 1 evro taxminan 3.400 somga teng.

<sup>41</sup> Evropa vazirlari kengashi komissiyasi tavsiyalari Rec(2003)4ning 1 maddasida: davlat va davlat fuqarolar siyosiy partiyalarni qullab quvatlashi mumkin.



Siyosiy partiyalardan saylov natijalari e'lon qilinishidan 20 kun o'tgach, tashviqot davri to'g'risidagi moliyaviy hisobotni MSK va Hisob palatasiga topshirish talab qilinadi. Buning ustiga, ulardan partiya gazetasi va partiyaning rasmiy veb-saytida daromad to'g'risidagi hisobotni saylov natijalari e'lon qilingandan keyin bir oy davomida e'lon qilish talab etiladi. Hisob palatasi va Moliya vazirligiga partiya va tashviqot moliyaviy talablariga rioya etilishini kuzatish vakolati berilgan. Partiyalar o'zlarining xarajatlarini chop etmaydi, MSK va Hisob palatasi o'zlarining xulosalarini chop etmaydi, chunki bu qonunda talab qilinmagan, bu esa, tashviqot moliyalashtirish ochiqligiga ta'sir qiladi.

### Ommaviy Axborot Vositalari

So'z erkinligi va axborotga ega bo'lish Konstitutsiya tomonidan kafolatlanishiga qaramasdan ortiqcha qonunlar keragidan ortiq cheklovlar qo'ygan, ya'ni jinoiy javobgarlik keng ma'noda talqin qilingan, bu o'z ichiga tuhmatni olib, internet doirasida ham qo'llaniladi. Ommaviy axborot vositalari tarqatayotgan axborotning "ishonchliligi" uchun OAV ning o'ziga javobgarlik yuklatilgan, va bu tashviqotlarni aslligi va to'laligicha ko'rsatilishini oldini oladi.

Bundan tashqari, onlayn va oflayn ommaviy axborot vositalariga lisenziya berish qonunda ajratib ko'rsatilmagan. Davlat vakillari tanqidiy nashrlarga qarshi chora ko'rishda ko'maklashadi.<sup>42</sup> Qonun doirasidagi ijrosi o'z –o'zini senzura qilish muhitiga va xalqaro so'z erkinligi standartlariga yetarli darajada mos emasligiga olib keladi, xususan Fuqaro va siyosiy huquqlar xalqaro bitimining 19 bandiga mos kelmaydi.<sup>43</sup>

Davlatga tegishli Milliy televideniya va radio kompaniyasi (MTRK), butun mamlakat miqiyosida, siyosiy axborotni uzatuvchi asosiy, yagona manbadir.<sup>44</sup> Xususiy va mahalliy axborot vositalarining mazmuni MTRK axborotlariga asoslanib tayyorlanadi, bu esa MTRK belgilagan mazmuni va axborotni tarqatadi.<sup>45</sup> Bir nechta onlayn manbalar ichki voqealarni, jumladan saylovni yoritishga bo'lgan an'anaviy yondashuvga muqobil chiqishga harakat qildilar. Ammo, O'zbekiston haqida milliy va xalqaro tahliliy yoki/va tanqidiy veb-saytlarga kirish imkoniyati yo'q.<sup>46</sup> O'zbekistonda 1400 dan ortiq manbalar borligiga qaramasdan, saylovchilar muqobil fikrdan xabardor emaslar.

PSQ va MSK qarorlari tashviqot mazmunini va shaklini belgilab beradi, barcha prezidentlikka nomzodlarni nashriy manbalar bilan davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalariga teng ravishda taqsimlab berishni o'rnatadi. Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar bilan nomzodni sha'niga

<sup>42</sup> Qator hukumat nazoratidagi birliklar ommaviy axborot sektorini kuzatib boradi va nazorat qiladi. Rahbarini Prezident tayinlaydigan Matbuot va axborot agentligi (MAA) keng tushunchalar orqali ta'riflangan asoslarga ko'ra ommaviy axborot vositasining faoliyatini to'xtatib qoyish tashabbusi bilan chiqishi mumkin; 2015 yilda barpo etilgan Axborot texnologiyalar va kommunikatsiyani rivojlantirish vazirligi (ATARV) onlayn ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalari ustidan davlat nazoratni mujassamlashtirish vakolatiga ega; u erda Monitoring markazi va ekspert komissiyasi mavjud – har ikki muassasa boshqaruv tarkibi ravshan emas, har ikkalasi onlayn va oflayn kontentni tahlil qilib boradi. 2016 yil 20 may kuni Toshkent xo'jalik sudi O'zbekistonning ommada mutanosib axborot beruvchi sifatida qabul qilingan, eng eski gazetalaridan biri "Noviy Vek" gazetasining litsenziyasini qaytarib oldi. MAA gazeta muntazam ravishda to'rt turli qonunni buzgan, deb ta'kidlaydi. Jizzah sharida mahalliy jurnalist BAKga 2015 yil noyabr oyida axborot berganligi uchun 2 oyga qamaldi.

<sup>43</sup> BMTIHQ taqdim etilgan 25-Umimiy izohining 34-maddasi "Har bir jamoa uchun ommaviy axboratlarning erkin, senzurasiz, tusiqsiz bo'lishi suz erkinligi va fikr erkinligi uchun muhim", va 43 bandi "Faqat 3 bandiga to'g'ri kelgan holatlardagina... internet, bloglar va boshqa internet axboratlarini yuritilishiga cheklav quyiladi."

<sup>44</sup> MTRKning rahbarini prezident tayinlaydi; viloyat markazlarida idoralari mavjud; jami 26 TV va radio stansiyalarni o'z ichiga oladi, har birining belgilangan auditoriyasi va e'tibor beriladigan mavzulari bor.

<sup>45</sup> YHXT/DIIHB SKM UMK habar berishicha mahalliy axborotlar vositalari, davlat tomonidan berilgan yoki davlat tasarrufidagi jamoa birmashlaridan keladigan xabarlariga boglanish qolgan.

<sup>46</sup> Misol uchun BBC Uzbek service, Radio Free Europe Uzbek service, Eurasianet veb-saitlariga kirib bo'lmaydi. YHXT/DIIHB SKM bunga masul shaxslardan veb-saytlarning qupishga qanday kriterialar va proseduralar orqali yopiladi deganda, aniq javob olisha olmadi. Topilgan veb-saytlar soni jamoaga e'lon qilinmagan.

putur yetkazish 3 yilgacha qamoq jazosi bilan jazolanishi mumkin. MSK qarori ommaviy axborot vositalarida mamlakat va viloyat miqyosida, har bir nomzodga yetarli miqdorda tekin efir vaqti va matbuot tekin maydoni belgilab bergan.<sup>47</sup> Nomzodlar efir vaqtini yoki matbuot maydonini teng asosda sotib olishlari mumkin.

YHXT/DIIHB SKM milliy radio kompaniya kanallari va xududiy ommaviy axborot vositalari namunalari nazorat qildilar.<sup>48</sup> Tijorat kanallari nazorat qilganda to'rt siyosiy partiyaning har biriga tekin efir vaqti va matbuot tekin maydoni sotilgan, masalan UzReport TV da har bir partiya uchun 37 daqiqa va *Darakchi* gazetasida aynan to'rt sahifadan Milliy Tiklanish, O'zLiDeP, Adolat Partiyalariga joy ajratilgan. MSK qarorida yozilganidek nazorat vaqtida shuningdek har bir nomzod uchun tekin efir vaqtini taqsimlaganligi ya'ni O'zbekiston va Yoshlar kanallarida uch soat o'n besh daqiqa ajratilganligi tenglik prinsipi bilan xarakterlanadi.<sup>49</sup> Bepul va pulli tashviqot reklamalariga ajratilgan vaqt barcha nazorat qilingan axborot vositalarida, tahririy kontentdan haddan tashqari oshib ketdi. Asosan yangiliklarda, ya'ni nomzodlarning tashviqot faoliyatlari haqida bir xil takroriy xabarlar mavjudligi, tahririy dasturlarda plyuralizmning mavjud emasligi yaqqol ko'rindi.<sup>50</sup>

Tahlil qilingan barcha kanallardagi yangiliklarda, har bir nomzod uchun umumiy vaqtning 18-22 foizi siyosiy faoliyatga bag'ishlangan.<sup>51</sup> Har bir nomzodning jonli nutqi yangi dasturlar doirasida so'zlagan siyosiy faoliyatining jonli nutqiga umumiy vaqtning 18-25 foizi orasida tashkil etilganligi nomzodning tashviqotiga qat'iy chegaralangan. To'rt nomzod haqidagi axborotlar faqat ijobiy ohangda bo'ldi. Nazorat qilish jarayonida nomzodlarning dasturlariga nisbatan tanqidiy fikrlar, muammoga qaratilgan intervyular yoki tahririy ko'rsatuvlar bo'lgani yo'q. Respublika va hududiy nashrlarda ham barcha nomzodlarning tashviqot dasturlari huddi shu tusda bo'ldi.<sup>52</sup>

Nomzodlarning rasmiy idorada qilgan ishlari haqida axborot qilinganida, partiya va davlat ishchisi sifatidagi faoliyati bir-biri bilan chalkashib ketgani yaqqol ko'rinib qoldi, va bu MSK qarorlarida tashviqot deb tan olinmadi. Bu kabi axborotlar, yangiliklarga ajratilgan maydonda siyosiy muloqat uchun belgilangan 19-75 foiz oralig'idagi vaqtni oladi, va nomzodlarning yutuqlari tanqidiy baholanishdan yiroqdir.

Umuman olganda, asl siyosiy bahs-munozaradan jamoat chegaralangan, bu esa saylovchilarni anglagan holda ovoz berishiga to'siq bo'ladi.<sup>53</sup>

## Milly Kamchilikni Tashkil Qiluvchilar

Oxirgi rasmiy aholining ro'yxatga olinishi 1989 yilda bo'lgan. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib, Tojik, Rus, Qoraqalpoqlar milliy kamchilikni katta qismini tashkil qiladi. Oxirgi guruh vakillari

<sup>47</sup> MSKning 2016 yil 28 oktabrdagi 764-sonli nizomida nomzodlar davlat ommaviy axborot vositalari dasturlarida tekin efir vaqti/maydon ajratilishi belgilandi. har bir nomzodga ikki milliy TV kanalida kuniga taxminan bir soat, 13 viloyat ommaviy axborot vositalarida jami 8 soat tekin uzatish vaqti berilgan; kundalik tekin bosma tashviqot maydoni 5 milliy va 30 viloyat gazetasi orasida teng taqsimlangan.

<sup>48</sup> YHXT/DIIHB SKM ommaviy axborot monitoringini kundalik asosda praym-taym vaqtida davlat TV O'zbekiston, Yoshlar, Toshkent kanallari va xususiy UzReportTV; davlat radiosi „O'zbekiston kanali“; davlat gazetalari „Narodnoe Slovo“, „Pravda Vostoka“, „Xalq So'zi“ va „Darakchi“ tijorat nashi boyicha amalga oshirmoqda.

<sup>49</sup> XDP bir sahifani sotib olgan.

<sup>50</sup> Tahririy dastur va bosma materiallarda saylov oldi tashviqot qamrovini kuchaytirish maqsadida, Davlat va Nodavlat notijorat ommaviy axborot tashkilotlari MSK bilan majburiy shartnoma imzolagan.

<sup>51</sup> O'zbekiston kanalida tekin efir vaqti 44%, yangiliklar 23%, yoshlar kanalida 60% ga 24%, Toshkent kanalida 51% ga 6%, Uzbekiston davlat radiosi 78% ga 18%, Uzreport hususiy kanalida pullik efir vaqti 20% va yangiliklar 18% tashkil etdi.

<sup>52</sup> YHXT/DIIHB SKM tamonidan Andijon, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Sirdaryo va Toshkentda kuzatildi.

<sup>53</sup> BMTIHQ taqdim etilgan 25-Umimiy izohining 25-maddasi “25 maddasi buyicha huquqlar to'liqligicha himoyalaniishi, axborotni, fikrni erkin kominikatsiyon yo'llar bilan jamoat, siyosiy partiyalar, fuqarolar, nomzodlar bo'lishi kerak”. Bunga “Ommaviy abroratlar va boshqa axborot vositalarinig erking ham kiradi. 34- Umimiy izohining 13 bandida ”jamoat axborat olishga haqlidir”.

asosan Qoraqalpog'iston Respublikasida istiqomat qiladi, u hududda Turkman, O'zbek, Qozoq elatlari zich joylashgan hududlar ham bor.<sup>54</sup>

Konstitutsiya jins, irq, millat, til, din, ijtimoiy kelib chiqish, e'tiqod, shaxsiy va ijtimoiy maqom bo'yicha ajratmay teng huquq va erkinliklarni, til, urf-odat va an'analarga hurmat asosida munosabatni belgilaydi. Shuningdek, Konstitutsiyada, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasidan bo'lgan davlat xizmatchilari Oliy Majlis, Vazirlar mahkamasi va Konstitutsiyaviy sud vakil sifatida qatnashadilar.

MSK saylovga taalluqli bo'lgan axborot, material va byulletenlarni O'zbek, Rus, Qoraqalpog'iston tillarida nashr etganligi ijobiy baholandi<sup>55</sup>. Lekin boshqa bir tomondan boshqa kamchilikni tashkil qiluvchi elatlar hududida saylovchilar uchun ma'lumotlar va byulletenlar chop etilmadi.<sup>56</sup> Garchi bu holat jamoatchilik orasida katta norozilikka sabab bo'lmagan bo'lsada, YHXT burchlari va xalqaro standartlarga to'g'ri kelmaydi.<sup>57</sup> Butun Respublika qamrab oladigan gazetalarda nomzodlarning tashviqoti uchun bepul joy O'zbek, Rus, Tojik va Qozoq tillarida ajratilgan.<sup>58</sup>

Garchi ko'p millatli davlat bo'lishiga qaramasdan, ichki elatlar orasidagi munosabatlar, birdamlik kam elatli fuqarolarni mamlakat yoki Qoraqalpog'iston bo'ylab ishtiroki birorta nomzodning dasturida mavjud emas va nomzodlar bu masalani ko'tarmadilar. YHXT/DIIHB SKM tomonidan kuzatilganda saylov jarayonida hech qanday irqiy kamsitilish haqida axborot berilmadi va kuzatilmadi.

## Shikoyat va Murojaatlar

Saylovga doir nizolarni hal qilish tizimida bir nechta qonun va MSK qarorlari bilan tartibga solinadi, ammo bir qancha bo'shliq, noaniqlik va qarama-qarshiliklardan iborat.<sup>59</sup> Umuman olganda, agar saylov komissiyasining qarori, faoliyati va faoliyatsizligiga nisbatan biror bir shikoyat bo'lsa, irarxik tizim mavjud bo'lganligi tufayli, yuqoriroq saylov komissiyasiga murojaat qilishi mumkin. MSKning qarorlariga qarshi apellyatsiya Oliy sud tomonidan ko'rib chiqilsa, USK va OSK qarorlari tuman sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Qonunda har bir kishi sudga murojaat qilishga haqqi borligi belgilangan va MSK saylov komissiyasi siyosiy partiyalarning, davlat va mahalliy hokimiyatlarning, NNTlarning hisobotini tinglashadi. USK va OSKlarga kim va qanday masala yuzasidan murojaat qilishlari aniq emas. Har bir ovoz beruvchi saylov jarayonining har bir yo'nalishi va saylov komissiyasiga va sudga shikoyat qilish huquqiga ega ekanligi xalqaro tajriba hisoblanmaydi.<sup>60</sup> Shuningdek, MSK va Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsmen) saylov bilan bog'liq bo'lgan shikoyatlardan xabardor bo'lish uchun ishonch telefonlarni ishlatib qo'yadilar

<sup>54</sup> Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotiga ko'ra o'zbek millati vakillari aholining taxminan 82 foizini tashkil qiladi, tojiklar (4,7 foiz), qozoqlar (2,5 foiz), ruslar (2,4 foiz) qoraqalpog'iston aholining 39 foizi o'zbeklar, qoraqalpog'iston aholining 36,8 foizni qozoqlar (16,8 foiz), turkmenlar (5,3 foiz) tashkil qiladi.

<sup>55</sup> Rus tili rasmiy til maqomga ega emas.

<sup>56</sup> OSK bulitenlar hududda aholi keng qulamda qullaydigan tilda chop etilgan deyishadi. Tojik tili Samarqand va Buxoroda keng qullaniladi.

<sup>57</sup> Kopengagen Hujjatining 32.5 bandida "kamchilikni tashkil qiladigan fuqora hududlarda tarqatilayodgan axboratni, materiallarni o'z tillarida olishga va almashishga haqli". BMTIHQ taqdim etilgan 25-Umimiy izohining 25-maddasi 12 bandida "axboratni, materiallarni kamchilikni tashkil qiladigan ellatlar tilida bo'lishi kerak".

<sup>58</sup> Davlat milliy gazetalar: Narodnoe slovo, Ovozi Tojik va Nurli Jol.

<sup>59</sup> PSQ Saylov Huquqi; MSK ; Fuqarolarning ariza berish ; Ma'muriy Javobgarlik Kodeksi, Jinoyat Kodeksi va MSKning 681,739, 744 , 751, sonli Qarorlarini o'z ichiga oladi.

<sup>60</sup> "Ijobiy amaliyot kodeksi" II.3.3.d va f bandlari "appilatsiyon organ vakolati ovoz berish, saylovga ro'yhatga olish, saylov tashviqotlari ustidan to'ri nazorat olib borilganligi, saylov natijalari ko'rish kiradi" va "hamma nomzodlar va saylochlilar o'zlari ro'yhatga olingan joylarga qarshi apellyatsiya qilish huquqi bulishi kerak. Saylov natijalariga qarshi saylovchilar apellyatsiya qilishiga o'rinli talab quyilishi mumkin".

Qonunda shikoyat va apellyatsiyalarni taqdim qilish oxirgi muddati yozilmagan. Qoida tariqasida, saylov komissiyalari, sudlar uch kun ichida qaror chiqarishi shart.<sup>61</sup> Saylov kuniga olti kun qolganda taqdim etilgan shikoyatlar darhol ko'rib chiqilishi shart. Saylov komissiyalariga berilgan shikoyatlardan farqli o'laroq, sudlarga taqdim etilganlari aloqador taraflar ishtirokida ochiq jarayonda ko'rib chiqilishi lozim.<sup>62</sup> MSK saylovni butunlay yoki qisman bekor qilishi mumkin. MSKning saylovni bekor qilishi ustidan apellyatsiyani faqat nomzodlar berishi mumkin, apellyatsiya saylov natijalari e'lon qilinganidan keyin o'n kun davomida Oliy Sudga beriladi. Natijalarni qayta hisoblash va ularni bekor qilish qonunda ko'rsatilmaganligi sababli, saylov jarayonida ijobiy natijani ko'rishni cheklaydi.<sup>63</sup>

YHXT/DIIHB SKMga sud va saylov komissiyalariga kelgan rasmiy shikoyatlar haqida ma'lumot berilmadi. MSK YHXT/DIIHB SKMga 129 ta yozma murojaat va 347 ta telefon qo'ng'iroqlari, shulardan 60 tasi yozma murojaat va 102 tasi telefon qo'ng'iroqlari umuman saylovga bog'liq bo'lmagan.<sup>64</sup> MSK shikoyatlarning yozma ro'yxati yo'naltirilgan manzili saqlaydi. MSK OSK, PSK va sudlarga qarshi shikoyatlar haqida ma'lumot yig'magan. Inson Huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsmen) YHXT/DIIHB SKMga 304 ta saylov jarayoni bilan bog'liq bo'lgan telefon qo'ng'iroqlari qabul qilganliklari to'grisida ma'lum qildilar.<sup>65</sup>

Umuman olganda, mavjud bo'lgan mexanizmlar saylov jarayoni bilan bog'liq bo'lgan shikoyat va murojaatlarni tinglash va ularga javob berish ochiqlik, javobgarlik yo'li bilan hal qilinganligiga shubha tug'diradi.

## Fuqaro va Xalqaro Kuzatuvchilar

YHXT/DIIHBning avvalgi tavsiyasiga qaramay, qonunchilikda fuqarolarning saylovda kuzatuvchi sifatida ishtiroki nazarda tutilmagan.<sup>66</sup> Siyosiy partiyalar kuzatuvchilari va xalqaro kuzatuvchilar saylov jarayonining barcha bosqichlarini kuzatishlari va natijalar bayonnomalarining nusxalarini olishlari mumkin. Har bir siyosiy partiya har bir saylov uchastkasida bir kuzatuvchi tayinlash huquqiga ega. Faqatgina, xalqaro kuzatuvchilar matbuot konferensiyalar olib borishi va intervyu berish huquqiga ega. MSK, OSKga ko'ra 37,352 partiya vakillari akkreditatsiyadan o'tgan, shulardan O'zLiDep va Milliy Tiklanish partiyasida 9,339 tadan, Adolat va XDP 9,337 tadan vakil tayinlandi. 479 nafarga yaqin xalqaro kuzatuvchilar saylov uchun akkreditatsiyadan o'tgan.

## Saylov Kuni

Saylov jarayonida ovoz berish, ovoz berganlar sonini hisoblash paytida jiddiy qoidabuzarliklarga yo'l qo'yilganligi kuzatildi. Saylov uchastkalarining faoliyat tugatilganidan so'ng MSK 87.8 foiz ovoz beruvchilar kelganliklari haqida xabar berildi.

<sup>61</sup> Ijobiy tomoni, bu saylov uchun MSK Qarori bilan PSKning shikoyatlar bo'yicha qaror qabul qilishi uchun besh kundan uch kungacha kerak bo'lgan vaqt davomiyligini qisqartirildi.

<sup>62</sup> "Ijobiy amaliyot kodeksi" II.3.3.h bandi "Arizani ishitish huquqi ikki tarafni himoyasini ko'zda tutadi".

<sup>63</sup> "Ijobiy amaliyot kodeksi" II.3.3.e bandi "apelatsiyon organ no'tug'riliklar saylov natijalariga tasir qilsa, organ natijani bekor qilish vakolati bor. Butun saylovni yoki bir bulagini yoki saylov uchaskasi natijalarini bekor qilishi mumkin. Agar bekor qilinsa, taluqli yangi saylov e'lon qilinishi kerak.

<sup>64</sup> Nomzodlar bilan uchrashish va ularni qo'llab-quvvatlashga doir 20 ta yozma, 2 ta mamlakatdan tashqari ovoz berish uchun, 1 ta vaqtincha ro'yhatga olish uchun, 1 ta muddatdan oldin ovoz berish uchun va 41 saylov bilan bog'liq bo'lgan murojaatlarni o'z ichiga oladi.

<sup>65</sup> Ulardan 61ta tashviqot kampaniyasiga, 53 ta muddatdan oldin ovoz berish, 49 ta saylov ro'yxati, ko'chma harakatlanuvchi saylov qutisi, 31 saylov uchun hujjatlar, oilaviy ovoz berish.

<sup>66</sup> Shunday bo'lsada, Fuqarolik Jamiyati Shakllanishini Nazorat qilish Mustaqil Instituti SKMga saylovni nazorat qilish faoliyatini boshlab yuborganligini ma'lum qildi.

Barcha saylov uchastkalari o'z vaqtida boshlanib, barcha kerakli jihozlar bilan ta'minlangan edi. 84 nafar kuzatuv joylaridan 77 nafari ochilish marosimi ijobiy deb topishlariga qaramasdan, deyarli prezident saylovi uchastkalarining aksariyat joylarida ovoz berganlarning soni e'lon qilinmadi.

Saylov jarayoni bayramona tusda o'tkazildi, ammo kuzatuvning 12 foizi salbiy baholanib, muhim qoidabuzarliklarga yo'l qo'yilgan. Eng ko'p uchragan qoidabuzarliklardan biri, boshqalar o'rniga ovoz berishni oldini olish edi, bu xatolarni MSK tashviqot kampaniyalariga qilmasliklari to'grisida kelishilgan edi. YHXT/DIIHB SKM kuzatuvchilari 12 foiz saylov uchastkalarida birovning o'rniga ovoz berish va 3 foiz saylov uchastkalarida bir nechta yoki guruh bo'lib ovoz berish kabi holatlarga guvoh bo'ldilar.

Birovning o'rniga ovoz berish holati 33 foiz kuzatuvlarning hisobotiga ko'ra saylovchilar ro'yxatidagi imzolarning bir biriga o'xshashligidan dalolat beradi. Kuzatilgan 8 foiz saylov uchastkalarida saylovchi shaxsini aniqlaydigan hujjati tekshirilmaganligi va kuzatilgan 5 foiz saylov uchastkalarida saylovchining shaxsini aniqlaydigan hujjatisiz ovoz berishga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. Bundan tashqari, kuzatilgan 5 foiz saylov uchastkalarida ovoz berish qutilari muhrlanmaganligi, kuzatilgan saylov uchastkalarida 18 foiz holatda ovoz berish qutilari har joyda joylashtirilganligi aniqlandi. Bu kabi qoidabuzarlik holatlari YHXT/DIIHBning 1990 yildagi Kopengagen hujjatining 7.3 bandida ko'rsatib o'tilgandek jarayonning to'laqonli va ovoz tengligida bo'lib o'tishi jiddiy muammoni olib keladi.

Vakolatga ega bo'lmagan shaxslarning kuzatilgan 27 foiz saylov uchastkalarida USK a'zolarinig saylov jarayonidagi majburiyatlarini va kuzatilgan 6 foiz saylov uchastkalarida USK a'zolarinig bajarayotgan faoliyatiga aralashganligi kuzatildi. Ba'zi saylov uchastkalarida mahalla faollari YHXT/DIIHB SKM ga ovoz beruvchilarni ro'yxatga olganliklari va ovoz bermaganlar bilan aloqada bo'lishlarini ma'lum qildilar. Bu holat saylovchilarni ovoz berishga majbur ekanliklari ko'rsatildi.

77 ta saylov uchastkalaridan 46 tasida ovozlarning soni salbiy baholandi. YHXTning 1990 yildagi Kopengagen hujjati 7.4 bandiga muvofiq, halollik bilan ovozni sanash kuzatilmagan. Jiddiy protsessual kamchiliklar kuzatuv jarayonida aksariyat qismida aniqlandi. Kuzatilgan 21 ta saylov uchastkalarida 36 holatda USK a'zolari ovoz sonini va ishlatilmagan byulletenlarni sanamadilar. 46 ta kuzatilgan saylov uchastkalarida ro'yxatga olingan ovoz beruvchilarning imzolariga qarab byulletenlar sonini e'lon qilmadilar, va kuzatilgan saylov uchastkalarida taxminan uch qismida qutilarni ochish nazorat qilinmadi.

YHXT/DIIHB SKM kuzatgan saylov uchastkalarining uch qismida ro'yxatga olish varaqasidagi imzolar soni ovoz berish qutisi soniga mos kelmaganligi haqida xabar berdilar. YHXT/DIIHB SKM saylov uchastkalarining 19 tasida byulletenlarni tashlash qutilarining har tomonda joylashganligi kuzatildi. Bu kamchiliklar saylov kuni jarayonining ketma-ketligiga paydo bo'ladigan muammolarni birlashtiradi.

Kuzatilgan aksariyat saylov uchastkalarida USKlar bayyonna natijalarini to'ldirish uchun qiyinchiliklarga duch keldi. YHXT/DIIHB SKMning kuzatuv holatining 13 tasida USKlar bayyonna yoki natijalar, ovoz beruvchilarni ro'yxatga olish varaqalarini ataylab qalbakilashtirganlar. YHXT/DIIHB SKM kuzatuvchilariga deyarli barcha holatlarda bayyonna nusxalari berilganda, aksariyat kuzatuvlarda omma oldida ko'rsatilmaganligi, oshkoralik cheklanganligi aniqlandi.

YHXT/DIIHB SKM USK 14 ta OSKlarning bayyonna natijalarini uzatish va hisoblash jarayonini kuzatdilar. Jarayon 14 holatdan 8 tasida salbiy baholandi. Jarayonlarni kuzatish paytida oshkoralikning yetishmasligi, cheklangan kuzatishlar va ba'zi OSK larning hamkorlik darajasi yetishmasligi kuzatuvchilar tomonidan ta'kidlandi. Taxminan kuzatuvlarning bir qismida USKlar o'z

bayyonnomalarini OSK binolarida bayyonnomalarini yakunlab, OSKning hech qanday rasmiy qarorisiz bayyonnoma natijalarini o'zgartirdilar. Kuzatuvning beshdan bir qismida bayyonnomalar muvofiqlashtirilmadi. YHXT/DIIHB SKM ovozlarni sanash jarayonini kuzatishni davom etmoqdalar.

*Ushbu hosobotning ingliz tilidagisi yagona rasmiy hujjat hisoblanadi.  
Norasmiy tarjimalar o'zbek va rus tillarida mavjud.*

---

#### MISSIYA HAQIDA MA'LUMOT VA MINNATDORCHILIK

---

11 oktyabirdan 13 oktyabrda Ehtiyojlarni baholash missiyasi tavsiyasiga tayanib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov Komissiyasining taklifi va mandati asosida, YHXT/DIIHBning Saylovlarni Kuzatish Missiyasi 2016 yil 4 dekabrni kuzatish uchun o'z faoliyatini boshladi. YHXT/DIIHB SKM 15 nafar ekspert poytaxtda va 20 nafar uzoq muddatli kuzatuvchilar mamlakat bo'ylab o'z faoliyatini 2 noyabr kuni Toshkentda boshladi.

Saylov kuni YHXT/DIIHB 32 mamlakatdan tashrif buyurgan 193 nafar kuzatuvchilar bilan o'z ishini boshladi. Mamlakat bo'ylab Prezidentlik saylovining ochilish marosimi 84 saylov uchastkalarida, ovoz berish 833 saylov uchastkalarida kuzatildi. Ovozlarni sanash 81 saylov uchastkasida kuzatildi. Natijalarni hisoblash 14 OSKning barcha 14 ta hududida kuzatildi.

Saylov mahalliy qonun, demokratik saylov standartlari YHXT va xalqaro majburiyatlariga rioya qilgan holda o'tganligini baholadi. Bu Dastlabki Natija va Xulosalar Bayyonoti saylov jarayoni tugatilmasidan taqdim etiladi. Saylovni yakuniy baholash boshqa saylov jarayonlarini yakunlanishi, sanash va natijalarni hisoblash, ularni e'lon qilish saylovdan keyingi shikoyat va appelyatsiyalarni uddasidan chiqishiga bog'liq. YHXT/DIIHB saylov jarayoni sakkiz hafta o'tganidan so'ng, to'liq takomillashtirish uchun tavsiyalarni o'z ichiga olgan batafsil yakuniy hisobot taqdim qiladi.

Kuzatuvchilar saylovlarni kuzatish borasida yuborgan takliflari uchun hukumatga, shuningdek ko'rsatgan yordamlari va hamkorliklari uchun MSK, Tashqi ishlar vazirligiga ham minnatdorchiligini izhor etadilar. Bundan tashqari kuzatuvchilar hamkorlik uchun davlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va xalqaro tashkilotlar o'z tashakkurlarini bildiradi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi shaxslarga murojat etishingiz mumkin:

- Janob elchi Piter Teyler, YHXT/DIIHB SKM rahbari Toshkentdagi telefon raqami +998 71 1203212
- Tomas Raymer, YHXT/DIIHB matbuot kotibi (+48 609 522 266), yoki Ulvi Akhundlu YHXT/DIIHB Saylov bo'yicha maslahatchisi, Varshava (+48 695 808813)

#### **YHXT/DIIHB SKM manzili:**

Said Baraka ko'chasi 12A  
100060 Toshkent shahri, O'zbekistan  
Tel: +998 71 1203212  
Faks: +998 71 1203213  
Email: [office@odihr.uz](mailto:office@odihr.uz)  
Website: <http://www.osce.org/odihr/elections/uzbekistan/276011>